

ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI

Sofoyeva Fotima

Xalqaro Nordik universiteti
“Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar” kafedrası assistenti
E-mail: f.sofoyeva@nordicuniversity.org

Annotatsiya

Mazkur maqolada elektron hukumat tizimining rivojlanishi va uning davlat boshqaruvidagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot davomida elektron xizmatlarning joriy etilishi natijasida davlat boshqaruvi samaradorligi oshgani, xizmat ko‘rsatish vaqti qisqargani va shaffoflik darajasi yaxshilangani aniqlandi. Rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslash asosida milliy tizimning asosiy xususiyatlari baholandi. Elektron hukumat tizimining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka ta’siri o‘rganildi. Shu bilan birga, texnik infratuzilma, kiberxavfsizlik va raqamli savodxonlik bilan bog‘liq muammolar aniqlashtirildi. Tadqiqot natijasida elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi hamda tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: elektron hukumat, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, davlat xizmatlari, kiberxavfsizlik, raqamli infratuzilma, samaradorlik.

Аннотация

В статье был проанализирован процесс развития системы электронного правительства и её значение в государственном управлении. В ходе исследования было установлено, что внедрение электронных услуг способствовало повышению эффективности управления, сокращению времени обслуживания и росту уровня прозрачности. На основе сравнительного анализа с зарубежным опытом были оценены особенности национальной системы. Изучено влияние электронного правительства на экономическую и социальную эффективность. Одновременно были выявлены проблемы, связанные с технической инфраструктурой, кибербезопасностью и уровнем цифровой грамотности населения. По результатам исследования были определены приоритетные направления развития системы и разработаны практические рекомендации по повышению её эффективности.

Ключевые слова: электронное правительство, цифровизация, государственное управление, государственные услуги, кибербезопасность, цифровая инфраструктура, эффективность.

Abstract

The article examined the development of the e-government system and its role in public administration. The study showed that the implementation of digital public services increased administrative efficiency, reduced service delivery time, and improved transparency. A comparative analysis with international practices was used to assess the characteristics of the national system. The impact of e-government on economic and social efficiency was evaluated. At the same time, challenges related to

technical infrastructure, cybersecurity, and digital literacy were identified. Based on the findings, key directions for further development were determined, and practical recommendations to improve system performance were proposed.

Keywords: e-government, digitalization, public administration, public services, cybersecurity, digital infrastructure, efficiency.

KIRISH

Globalashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini tubdan o'zgartirib, elektron hukumat (e-government) tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Elektron hukumat - bu davlat organlari faoliyatini raqamli platformalar orqali amalga oshirish, fuqarolar va biznes subyektlariga qulay, tezkor va shaffof xizmatlar taqdim etish tizimidir.

Ko'plab davlatlar, jumladan O'zbekistonda ham, elektron hukumat tizimini joriy etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayon davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, korrupsiya holatlarini kamaytirish hamda aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatlarini onlayn shaklga o'tkazish orqali vaqt va xarajatlarni qisqartirish, inson omilini kamaytirish kabi ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, elektron hukumat tizimini rivojlantirish jarayoni bir qator muammolar bilan ham bog'liq. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kiberxavfsizlik tahdidlari, aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutlar ushbu tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, elektron hukumat tizimini joriy etishda kompleks yondashuvni qo'llash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va aholining raqamli ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi elektron hukumat tizimining mohiyatini o'rganish, uning samaradorligini baholash hamda uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Elektron hukumat tizimining davlat boshqaruvidagi o'rni, uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka ta'siri hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron hukumat tizimi va uning samaradorligini o'rganish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular elektron boshqaruvning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va rivojlanish tendensiyalarini yoritib beradi. Xususan, Richard Heeks o'z tadqiqotlarida elektron hukumatni rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etish jarayonlarini tahlil qilib, uning samaradorligi institutsional muhit va texnologik infratuzilmaga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi[1].

M, Darrell elektron hukumatning fuqarolar bilan o‘zaro aloqani yaxshilashdagi rolini asoslab, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi aholi uchun qulaylik va ochiqlikni ta’minlashini ko‘rsatadi[2].

Jane E. Fountain elektron hukumatni institutsional yondashuv asosida o‘rganib, davlat tashkilotlarining ichki boshqaruv tizimi va madaniyati raqamli transformatsiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Shuningdek, Viktor Mayer-Schönberger va Kenneth Cukier o‘z ilmiy ishlarida Big Data” texnologiyalarining elektron hukumat tizimidagi ahamiyatini ochib berib, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorlikni oshirishini isbotlaydi[3].

METODOLOGIYA

Elektron hukumat tizimining samaradorligini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahliliy metod orqali mavjud ilmiy manbalar va nazariy qarashlar o‘rganildi, taqqoslash metodi yordamida rivojlangan davlatlar tajribasi bilan milliy amaliyot o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Statistik metod asosida elektron xizmatlar ko‘rsatish darajasi va ularning rivojlanish ko‘rsatkichlari baholandi. Tizimli yondashuv metodi orqali elektron hukumatning barcha tarkibiy elementlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Shuningdek, umumlashtirish metodi yordamida olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu metodlarning kompleks qo‘llanilishi tadqiqotning limit asoslanganligi va natijalarning ishonchligini ta’minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron hukumat (e-government) tizimining davlat boshqaruvi samaradorligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish tezligi oshgan, byurokratik jarayonlar qisqargan hamda fuqarolar uchun qulaylik darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan.

1-jadval.

Elektron hukumat tizimi samaradorligi ko‘rsatkichlari

| Ko‘rsatkichlar | An’anaviy tizim | Elektron tizim |
|-------------------------|-----------------|----------------|
| Xizmat ko‘rsatish vaqti | 3-5 kun | 5-30 daqiqa |
| Hujjatlar soni | 5-10 ta | 1-2 ta |
| Fuqarolar murojaati | Ofis orqali | Onlayn |
| Shaffoflik darajasi | Past | Yuqori |
| Xarajatlar | Yuqori | Past |

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, elektron hukumat tizimi xizmat ko‘rsatish samaradorligini bir necha barobarga oshirgan. Ayniqsa, vaqt va xarajatlarning qisqarishi muhim natija hisoblanadi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya kun tartibini ilgari surish maqsadida 2020-yilda ishlab chiqilgan “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasiga asos solgan ko‘plab strategiya va farmonlar amalga oshirildi¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi ikki yil ichida turli mintaqalarda va ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan 280 dan ortiq raqamli transformatsiya loyihalarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda raqamli infratuzilmaga taxminan 2,5 milliard dollar sarmoya kiritilishi kutilgan edi. Ushbu strategiyani qo‘llab-quvvatlash uchun 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi ishlab chiqildi¹.

2019-yilda O‘zbekistonda o‘zining rezidentlari bo‘lgan AKT kompaniyalari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i, ijtimoiy soliq, daromad solig‘i, pasaytirilgan ish haqi solig‘i, bojxona to‘lovlari hamda dividendlar bo‘yicha yangi joriy etilgan 5% chegirmali soliq kabi imtiyozlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini taklif etuvchi Toshkent texnologiyalar parki va uning Samarqand, Buxoro va Farg‘onadagi filiallari tashkil etildi².

IT-Park vakillarining so‘zlariga ko‘ra, hozirda parkda 2500 ta rezident kompaniyalar faoliyat ko‘rsatmoqda, ulardan 625 tasi xorijiy korxonalaridir.

Elektron hukumat (e-government) tizimining davlat boshqaruvida muhim o‘rin egallashini va uning samaradorlikka sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini yana bir bor tasdiqlaydi. Olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish tezligi oshgan, ortiqcha byurokratik jarayonlar qisqargan hamda fuqarolar uchun qulayliklar kengaygan. Bu esa o‘z navbatida davlat boshqaruvi tizimining shaffofligi va ochiqligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aniqlangan muammolar ham muhokama qilishni talab etadi. Avvalo, elektron hukumat tizimining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan texnik infratuzilma barcha hududlarda bir xil darajada rivojlanmagan. Ayniqsa, chekka hududlarda internet tezligi pastligi yoki uzilishlar mavjudligi fuqarolarning elektron xizmatlardan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlik darajasi yetarli emasligi ham tizim samaradorligini cheklovchi omillardan biridir.

Yana bir muhim muammo - bu kiberxavfsizlik masalasidir. Elektron hukumat tizimida katta hajmdagi shaxsiy va davlat ma‘lumotlari saqlanadi, bu esa kiberhujumlar xavfini oshiradi. Agar axborot xavfsizligi yetarli darajada ta‘minlanmasa, bu fuqarolarning tizimga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy himoya vositalarini joriy etish va doimiy ravishda tizimni yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Xususan, it infratuzilmani takomillashtirish, aholining raqamli savodxonligini oshirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali tizim samaradorligini yanada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron hukumat (E-Government) tizimining mohiyati, uning davlat boshqaruvidagi o‘rni hamda samaradorligi har tomonlama tahlil qilindi. Olib borilgan

¹ BMTTD va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar vazirligi (2022): Перспективные направления применения технологий искусственного интеллекта в Узбекистане (O‘zbekistonda sun‘iy intellekt texnologiyalari qo‘llanishning istiqbolli yo‘nalishlari.)

² OECD (2023): O‘zbekistonda xususiy sektor raqobatbardoshligi uchun raqamli ko‘nikmalar

tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, elektron hukumat tizimi zamonaviy raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xizmatlarning raqamlashtirilishi orqali vaqt va moliyaviy xarajatlar qisqarib, fuqarolar uchun qulaylik va tezkorlik ta'minlanadi.

Elektron hukumat tizimi davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, korrupsion holatlarni kamaytirish hamda davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, tizim joriy etilishi natijasida davlat xizmatlaridan foydalanish darajasi ortib, boshqaruv jarayonlarining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanganligi aniqlandi.

Biroq, elektron hukumat tizimini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kiberxavfsizlik tahdidlari hamda aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi tizim samaradorligini cheklovchi asosiy omillar sifatida qayd etildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, internet infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholining raqamli bilim va ko'nikmalarini oshirish zarur.

Elektron hukumat tizimi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish orqali davlat xizmatlari sifatini oshirish, fuqarolar ehtiyojlarini to'liq qondirish va jamiyatda ochiq hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Heeks, R. (2016). *Implementing and managing e-government: An international text*. SAGE Publications.
2. West, D. M. (2015). *Digital government: Technology and public sector performance*. Princeton University Press.
3. Fountain, J. E. (2011). *Building the virtual state: Information technology and institutional change*. Brookings Institution Press.
4. Mayer-Schönberger, V., & Cukier, K. (2013). *Big data: A revolution that will transform how we live, work, and think*. Houghton Mifflin Harcourt.
5. Abduqodirov, A. (2020). O'zbekistonda elektron hukumat tizimini rivojlantirish istiqbollari. *Axborot texnologiyalari va boshqaruv*, 2(5), 45-52.
6. Sofoyeva, F. D. (2024). Tarmoq va internet. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 506-515.
7. qizi Abdusalomova, I. I., & qizi Maxmudova, M. K. (2025, December). Effectiveness of artificial intelligence technologies in personalizing the learning process. In *International Conference Platform* (No. 6, pp. 75-77).
8. Abdusalomova, I. I. Q. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalarining global rivojlanish istiqbollari va qo'llanilish sohalari. *Science and Education*, 6(12), 134-140.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**